

O‘SMIRLIK DAVRIDA PSIXOLOGIK O‘ZGARISHLAR**Nishonova Muhlisa Kamoliddin qizi***Andijon tumani 5-umumiy o‘rta
ta’lim maktabi psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davrida yuz beradigan psixologik o‘zgarishlar, ularning sabablari va shaxs rivojiga ta’siri yoritiladi. O‘smirlik davri inson hayotidagi murakkab, lekin muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda hissiy holat, tafakkur, xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi. Maqolada o‘smirlarning o‘zini anglash jarayoni, mustaqillikka intilishi, emotsional beqarorlik hamda tengdoshlar bilan munosabatlarning shakllanishi haqida umumiy tushunchalar beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, psixologik rivojlanish, emotsional o‘zgarish, o‘zini anglash, shaxs shakllanishi, ijtimoiy moslashuv, xulq-atvor, mustaqillik.

KIRISH

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng muhim va murakkab bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davr odatda 11–12 yoshdan boshlanib, 16–17 yoshgacha davom etadi va bola shaxs sifatida shakllanib boradigan, o‘z “men”ini anglay boshlaydigan davrdir. O‘smir organizmida nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ushbu o‘zgarishlar uning dunyoqarashi, his-tuyg‘ulari, xulq-atvori va boshqalar bilan munosabatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bu davrda o‘smirlar o‘zini mustaqil shaxs sifatida ko‘rishga intiladi. Ular kattalar kabi fikrlash, qaror qabul qilish va o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga harakat qiladi. Natijada ota-ona va o‘qituvchilar bilan kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu holat tabiiy jarayon bo‘lib, shaxsning o‘zini anglash va ijtimoiy rolini topishiga xizmat qiladi. O‘smir o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishga, yangi faoliyatlarga qiziqishga, o‘z qadr-qimmatini his etishga ehtiyoj sezadi.

Emotsional jihatdan o‘smirlar juda sezgir bo‘ladi. Kayfiyatning tez o‘zgarishi, o‘ziga ishonchsizlik, tashqi ko‘rinishdan qoniqmaslik, tanqidni og‘ir qabul qilish kabi holatlar tez-tez uchraydi. Shu bilan birga, ular do‘stlik va tengdoshlar bilan muloqotga katta ahamiyat beradi. Tengdoshlar fikri ko‘pincha kattalar fikridan ustun turadi. Bu esa ijtimoiylashuv jarayonining faol bosqichi ekanini ko‘rsatadi.

O‘smirlik davrida tafakkur ham rivojlanadi. Abstrakt fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish qobiliyatlari kuchayadi. O‘smirlar hayot mazmuni, adolat, do‘stlik, kelajak kasbi kabi masalalar haqida ko‘proq o‘ylay boshlaydi. Ular o‘z maqsadlarini belgilashga, orzularini shakllantirishga harakat qiladi. Bunday jarayonda kattalarning qo‘llab-quvvatlashi va to‘g‘ri yo‘naltirishi muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, bu davrda xulq-atvorda ham o'zgarishlar kuzatiladi. Ba'zan o'smirlar o'zini tajovuzkor yoki befarq tutishi, qoidalarga qarshi chiqishi mumkin. Bu ularning ichki kechinmalari, o'z o'rnini topishga bo'lgan izlanishlari bilan bog'liq. To'g'ri pedagogik va psixologik yondashuv orqali bu holatlarni ijobiy yo'nalishga burish mumkin.

Umuman olganda, o'smirlik davri shaxsning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bu davrda olingan tajriba, ko'rsatilgan e'tibor va yaratilgan ijtimoiy muhit kelajakdagi shaxsiy rivojlanishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'smirlarni tushunish, ularning fikrini hurmat qilish va qo'llab-quvvatlash orqali sog'lom, mustaqil va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash mumkin. O'smirlar asta-sekin o'zini katta odam deb his qila boshlaydi, lekin ko'p odat va xususiyatlari bolalarcha bo'lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va o'smirlikdagi asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o'smirlarda o'ziga, atrof muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyasi yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta moslashtira boshlaydi. O'smir o'z huquq doirasini kengaytiradi, kattalarni esa cheklashni xohlaydi.

O'smir yosh davridagi o'zgarishlar quyidagi nomlar bilan farqlanadi:

1. Tarbiyasi qiyin, xotirasi past, diqqatining ko'lami tor, beqaror, agressiv;
2. Deviant xulqli bolalar borliq, nizoli oilalarda shakllanadi;
3. Asotsiallik ko'chaga yo'nalgan bolalar;
4. Delikvent xulqli bola-oilasida mahkum qilgan shaxslar bilan munosabatlar asosida yuzaga keladi;
5. Nuqsonli bolalar- jismoniy nuqsonlarga ega.

Butun endokrin sistemasining, xususan gipofizning aktivlashishi tufayli o'smir organizmida sifat jihatidan o'zgarishlar yuz beradi. Bu holat qizlarda 11-13, o'g'il bolalarda 13-15 yoshda bo'lib, ikkilamchi jinsiy belgilar paydo bo'ladi, o'smirning tashqi ko'rinishi o'zgaradi, muskullar massasi va muskul kuchi o'sadi, bu holat jinsiy yetilishning oxriga borib jadallashadi. Ichki organlar xususan yurak, ba'zan yurak qon tomir sistemasida patologik o'zgarishlar yuz beradi. Tashqi olat, urug'don va urug' hujayralari, qin tuxumdon va tuxum hujayralariga bir qadar rivojlanishida jadalliklar yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirib tarbiyasiga befarq bo'lmaslik kerak. O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- 1) Fan va texnika rivojlanishi natijasida, madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning o'zgarayotganligi;
- 2) Ommaviy axborot ko'lamining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilganligi;

- 3) O'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat, fan va texnika rivojlanishi natijasida ijtimoiy qonunlaridan, tarixdan yetarlicha xabardorligi;
- 4) Akseleratsiya (jismoniy va aqliy kamoloti jadallashagani);
- 5) O'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy siyosiy, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik tarbiyasiga alohida yondashish zarurligi;
- 6) Oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;
- 7) O'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini-o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

Bularning barchasi yoshlarning keng imkoniyatlardan foydalanish yo'riqnomasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'smirlik davri- Insonni bolalikdan yoshlikka o'tuvchi, o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi omildir. Shu bilan birgalikda o'smirlik faoliyati natijasi natijasi haqida bir necha olimlar fikr bildirishgan, xususan:

Biogenetik yo'nalish vakillari S. Call va Z. Freyd bu inqiroz biologik shartlanganligi tufayli muqarrardir deb hisoblaydi. Amerikalik antropologlar M.Mid va R. Benedikt o'smirlik inqiroziy ijtimoiy munosabatlarning natijasi deb qarashadi.

K. Leonhard tomonidan kiritilgan tushuncha bo'lib, xarakter ba'zi sifatlarning yorqin ifodalanganligining namunasidir. Xarakter aksentuatsiyasini bilish o'smirlarga individual yondashish, kasbga yo'naltirish kabilarda zarurdir. O'z-o'zini baholash-shaxsning boshqalar bilan taqqoslash va refleksiya natijasida o'z-o'zini baholash murakkab va o'zgaruvchan bo'lib, shaxs strukturasi katta o'rin tutadi.

Venalik psixolog Z. Freyd va uning shogirdlari o'smirlik davrini baholashda insonga azaldan berigan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqeyini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go'yoki hudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo'lishga, atrof muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Rus psixologlari Z. Freyd nazariyasini mutlaqo asossiz hisoblab, o'smirda imkoniyat bilan talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik va o'z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo'lishi bilan xarakterlanishini asoslab berdilar. Amerikalik K. Kulon o'smirlik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o'smirlik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir, degisilgari suradi. Uning fikricha o'smirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy kategoriya mavjud bo'lib, ular:

1. Emansipatsiya (kattalar ta'siridan qutilish);
2. Mustaqillikka erishish;
3. Hayotiy yo'li va kasb- hunar tanlashda jiddiy munosabatda bo'lish zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirishdan iboratdir.

Bola yuqoridagi muammolarga e'tibor bermas ekan, o'smirlik davri qancha bo'lishidan qat'iy nazar, u bolaligicha qolaveradi. O'smir o'zini nazorat qilmas ekan bu borada trio yo'ldan adashishi muqarrar bo'lib qoladi.

XULOSA

O'smir yoshi dunyo qarash, e'tiqod, prinsip, o'zlikni anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakillanadigan davr hisoblanadi. O'smir ilayotgan sari unda „Ideal Men“, „Axloqiy Men“, va „Haqiqiy Men“ singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e'tiqod va boshqalar shakillana boradi, undagi o'zi to'g'risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo'lib qoladi. O'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip va shaxsiy nuqtai-nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. O'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylilik, dilkashlik kabi ma'naviy, axloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror ilmiy qarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda bir so'z bilan aytganda o'smirlik katta hayotga qo'yilgan birinchi qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yartsev D.V. Zamonaviy o'smirlarni ijtimoiylashtirishning xususiyatlari, 1999-yil.
2. Gipheneiv Yu. B. Bola bilan suhbat. Qanday?-3- tuzatilgan va to'ldirilgan-X drayveri :Chero, 2002.
3. Jumanazarov Yo. Youth and pedagogical psychology. Methodical complex Namangan 2009. 72-80-153-160.b
4. Ziyo net
5. Маклаков А.Г. Общая психология. Учебник для вузов. С. Пб. 2008. – 283 с.